

**1. KREDIT MAHSULOTI TO’G’RISIDA MA’LUMOT**

<b>Kredit mahsuloti nomi</b>	<b>Kichik biznesni qo'llab quvvatlash</b>	
<b>Kredit turi</b>	Kredit liniyasi ochmasdan	
<b>Kredit maqsadi</b>	Qonunchilik bilan taqiqlanmagan barcha loyihalarni moliyalashtirish uchun (alkogol, tamaki va qimorxonalar tashkil etish bilan bog'liq loyihalardan tashqari)	
<b>Qarz oluvchilar</b>	Faoliyat olib olib borayotganiga 12 oydan oshgan va ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlariga	
<b>Kredit valyutasi</b>	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda	
<b>Kredit miqdori</b>	300 000 000,0 so'mgacha (Kredit mahsuloti doirasida hamda bir loyiha bo'yicha $\leq 100$ million so'mgacha ajratiladigan kreditlar "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan qayta moliyalashtiriladi. 100 million so'mdan ortiq qismi Bank o'z mablag'lari hisobidan ajratiladi. Kredit mablag'lari 100 million so'mdan ortiq qismi uchun IABS dasturida alohida anketalar shakllantiriladi)	
<b>Kredit muddati</b>	Asosiy vosita, asbob uskuna, maxsus texnika, qurilish, uzoq muddatli, moddiy, nomoddiy aktivlar va jixozlar sotib olish uchun - 84 oygacha. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun - 24 oygacha	
<b>Imtiyozli davr</b>	Asosiy vosita, asbob uskuna, maxsus texnika, qurilish, uzoq muddatli, moddiy va nomoddiy aktivlar sotib olish uchun - 24 oygacha Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun - 8 oygacha	
<b>Kreditni qaytarish tartibi</b>	Annuitet/Differentsial	
<b>Kredit foizlarini to'lash tartibi</b>	Har oyda	
<b>Foiz stavkasi yillik</b>	Kredit miqdori 100,0 mln. so'mgacha	Kredit miqdori 100,0 mln. so'mdan ortiq
	O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 07.09.2024 yildagi PQ-312-son qaroriga asosan yillik: 5-toifa uchun — 18,5 foiz; 4-toifa uchun — 19,5 foiz; 3-toifa uchun — 20,5 foiz; 2-toifa uchun — 23,0 foiz; 1-toifa uchun — 24,0 foiz;	24,99% dan boshlab

**2. Kredit ta'minoti**

<b>Kredit ta'minoti</b>	1. 100 000 000 so'mgacha bo'lgan kreditlar uchun "Inson" Sug'urta kompaniyasining kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi (bunda sug'urta mukofoti mijozdan undirilmaydi); 2. 100 000 000 so'mdan yuqori kreditlar bo'yicha "Asia Alliance Bank" ATBda kredit xizmatlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bajarilishida ta'minotlarni qabul qilish tartibi talablariga muvofiq ta'minotning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turlari.
-------------------------	---

<b>Talab etiladigan hujjatlar</b>	Yuridik shaxslardan talab etiladigan hujjatlar	1. Kredit arizasi; 2. Ustav, ta'sis hujjatlari, guvohnoma, ta'sischilar, korxonahabari (buxgalteri) pasporti, lavozimga tayinlanishi bo'yicha buyruqlar nusxalari; 3. Kredit olish va/yoki garov ta'minotini taqdim etish yuzasidan ta'sischilar roziligi/qarori; 1. Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar (1-2 shakl, yillik va operativ balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar); 4. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari hamda pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larini qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob-kitoblar; 5. Zaruriyat bo'lgan holda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xujjatlar;
	Yakka tartibdagi (xususiy) tadbirkorlardan talab etiladigan hujjatlar	1. Kredit arizasi; 2. Faoliyat guvohnomasi; 3. Pasport nusxasi; 4. boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar); 5. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari hamda pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larini qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob-kitoblar; 6. Zaruriyat bo'lgan holda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xujjatlar;

**4. Qo'shimcha shartlar**

<b>Kreditlashning qo'shimcha shartlari</b>	1. Ushbu kredit mahsuloti shartlari PQ-312 sonli qaror va "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ bilan tuziladigan bosh bitim talablariga asosan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.
<b>Mijozga qo'yiladigan asosiy talablar</b>	1. Kamida bir yil mobaynida faoliyat yuritayotgan; 2. So'nggi 12 oy davomida hisob raqamida faoliyati bilan bog'liq pul tushumlari mavjud bo'lishi (bunda oylar kesimida kamida 3 oy mobaynida tushum mavjud bo'lishi lozim) 3. "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ bilan amaldagi kafillik va kompensatsiya shartnomalari mavjud bo'lmagligi va/yoki ilgari mazkur yordamlardan maqsadsiz foydalanilmagan bo'lishi lozim; 4. Yillik va so'nggi choraklik hisobot davriga Qarzdorning moliyaviy faoliyati zarar bilan yakunlanmagan bo'lishi lozim. Agarda, Qarzdorning faoliyati natijalari zarar bilan yakunlangan bo'lsa va u haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 5. Yillik va so'nggi choraklik hisobot davriga Qarzdorning o'z aylanma mablag'lari mavjudligi manfiy ko'rsatkichda bo'lmagligi lozim. Agarda, Qarzdor tomonidan ushbu ko'rsatkichlar haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 5. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmagligi; 6. Kreditlar bo'yicha ohirgi 12 oy ichida: 30+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 2 tadan ko'p bo'lmagligi; 60+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 1 tadan ko'p bo'lmagligi; 90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmagligi; 7. Mazkur Modulli kredit bo'yicha hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichi ushbu mahsulot qoldig'iga nisbatan 5%dan oshgan taqdirda kreditlash to'xtatiladi, hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichlari bankning tegishli boshqarmasi tomonidan taqdim etib boriladi. Kreditlash mazkur NPL ko'rsatkichi belgilangan darajadan tushgan taqdirda qayta tiklanadi.